

BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHIDA PAPE MASHE TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM JARAYONIDAGI AXAMIYATI

Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna

*Andijon davlat pedagogika instituti
maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pape-mashe texnologiyasining bolalar ijodiy rivojlanishidagi o'рни ko'rib chiqiladi. Pape-mashe texnikasi bolalarga tasavvur, yaratuvchanlik va motorikani rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon bolalarga muammolarni hal qilish, jamoaviy ishni o'rganish va hissiy ifodani shakllantirish imkonini beradi. Maqola pape-mashe texnologiyasining bolalar uchun ijodiy va ijtimoiy rivojlanishda ahamiyatini ta'kidlaydi, chunki u bolalarga erkin fikrlash va yangi g'oyalarni yaratish imkoniyatini beradi.

Abstract: This article examines the role of papier-mâché technology in the creative development of children. The papier-mâché technique helps children develop imagination, creativity, and motor skills. It also allows children to solve problems, learn teamwork, and develop emotional expression. The article emphasizes the importance of papier-mâché technology in the creative and social development of children, as it allows children to think freely and generate new ideas.

Аннотация: В статье рассматривается роль технологии папье-маше в творческом развитии детей. Техника папье-маше помогает детям развивать воображение, творческие способности и моторику. Этот процесс также позволяет детям решать проблемы, учиться работать в команде и развивать эмоциональное самовыражение. В статье подчеркивается важность технологии папье-маше в

творческом и социальном развитии детей, поскольку она позволяет детям свободно мыслить и создавать новые идеи.

Kalit so'zlar: Pape-mashe, bolalar ijodi, yaratuvchanlik, motorika, tasavvur, jamoaviy ish, hissiy rivojlanish, ijodiy rivojlanish, texnologiya, bolalar ta'limi, kreativlik, muammolarni hal qilish.

Keywords: Pape-mache, children's art, creativity, motor skills, imagination, teamwork, emotional development, creative development, technology, children's education, creativity, problem solving.

Ключевые слова: Папье-маше, детское творчество, творчество, моторика, воображение, работа в команде, эмоциональное развитие, творческое развитие, технология, образование детей, креативность, решение проблем.

KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ijodiy fikrlash va kreativ qobiliyatlarni ilg'or xorijiy tajribalar asosida oshirish, bolalar ijodiy rivojlanishida pape-mashe texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash samaradorligini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ustoz-shogird" va badiiy ta'limning milliy an'analari asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi metodikalarini ishlab chiqish, shuningdek, ijodiy ustaxonalar orqali o'quv faoliyatini boyitish, iste'dodli yosh ijodkorlarni aniqlash va ularning estetik ko'nikmalarini oshirishning ahamiyati katta. Buning natijasida, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining pape-mashe texnologiyalari yordamida ijodiy rivojlanishining didaktik asoslarini shakllantirish, bu jarayonni samarali tahlil qilish uchun diagnostik vositalarni yaratish zarurayati ortmoqda.

ASOSIY QISM

Ilmiy adabiyotlarda bolalar ijodkorligi masalasiga doir qarashlarda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'lum ijodiy rivojlanishning yorqin namunalari namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Bu jarayon ulardagi bunyodkorlik va yangilikka intilish asosida namoyon

bo'ladi. Olamni o'rganishga bo'lgan faollik, tashabbuskorlik va biror narsani egallashdagi yuqori ishtiyoq kabi fazilatlar ijodiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. L.S. Vigotskiy fikricha, bolalardagi ijodiy rivojlanishni baholashda natijalarni ko'rishda emas, balki aynan ijodiy jarayonning o'zida diagnostika qilish kerak. Chunki bola natijani ko'rishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ammo ijodiy jarayon uning butun fikrini qamrab olib, natijadorlikni ta'minlashi mumkin¹. Shunday qilib, bolalar ijodkorligining o'ziga xos jihatlari yuzaga chiqadi. Aslida, bolalar ijodiy faoliyati har doim yangi kashfiyotlar qilish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, "Nima uchun g'ildirak aylanadi? Nima uchun tosh bir joyda turadi? Nima uchun qushlar uchadi?" kabi kattalar uchun oddiy bo'lgan savollarni berish va ularga javob topish jarayoni bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantirishni ko'rsatadi.

Agar pape mashe texnologiyalari nuqtayi nazaridan gapiradigan bo'lsak, "Nima uchun qog'ozdan o'yinchoq yasasa bo'ladi?" savolidan tortib, pape mashe texnologiyasi orqali onasini gavdalanitirmoqchi bo'lgan bola mehr berib yasaydi, Ona quvonganidan bu menman deydi bu bolaga yanada ilxom berib "Bu onam! Uning ko'zlari chiroyli!" deya olish (aslida siz qog'ozda notekis shakilda yasalgan ayolga o'xshash odam, ya'ni qo'li va oyog'i bor odamni ko'rasiz) boladagi ijodiy rivojlanishining belgisidir. Shunday qilib, bolaning ijodiy rivojlanishi turli xil sa'y-harakatlar va faoliyatlar to'plamidan tashkil topgan kompleks jarayondir. Ushbu jarayon orqali bola atrof-muhitni tushunib, o'z shaxsini shakllantiradi. Natijada, bola hayot tajribasini yig'adi, shaxsiy o'sish va rivojlanish jarayoni davom etadi, shuningdek, bilim va ko'nikmalarni amaliy maqsadlar bilan bog'lash imkoniyati yaratiladi.

A.Ya.Ponamaryovning fikriga ko'ra, bolalar, yoshlar va kattalardagi ijodiy rivojlanishda o'xshash jihatlar mavjud. Ijodiy jarayonda turli faoliyat shakllarining bir-

¹ Выготский Л.С. Психология искусства (idem, pdf)/ Общ. ред. В.В.Иванова, коммент. Л.С.Выготского и В.В.Иванова, вступит. ст. А.Н.Леонтьева. 3-е изд. – М.: Искусство, 1986. – 573 с.

biriga o'tishi holati mavjud. Avvalo, psixologik nuqtai nazardan ijodiylik mexanizmida tafakkur faoliyatga kirishadi. Tafakkurning birinchi vazifasi – asosiy muammoni aniqlash, uni rejalashtirish va kunlik tartibda belgilashdan iboratdir. Vazifa belgilanganidan keyin, ikkinchi mexanizm ishga tushadi. Ijodiy rivojlanishdagi ushbu ikkinchi mexanizmnini aniqlash va ta'riflash qiyin, chunki u inson faoliyatidagi layoqat, iste'dod va ularning ifodalanish shakllari bilan bog'liqdir. Ijod faoliyati tafakkurdan tashqari, ongsiz (ong osti) jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Iste'dod va ijodiy rivojlanish, ko'pincha, spontan tarzda, ya'ni rejalashtirilmagan, birdaniga yuzaga keladigan, ba'zan juda oson, o'z-o'zidan amalga oshadigan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlar majmuasining oxirgi bosqichi yana tafakkurga asoslanadi. Iste'dod va layoqatlarning namoyon bo'lishi spontan jarayon sifatida, tayyorgarlik va rejalashtirishdan tashqarida bo'lib, ilhom va ruhiy holat bilan bog'liqdir. Bu jarayon irratsional xususiyatga ega bo'lib, inson tafakkuri va irodasiga bo'ysunmaydi. Spontan faoliyat jarayonida tafakkur natijani anglab yetadi va bu natijaga intilish kuchayadi. Shu nuqtai nazardan boladagi ijodiylik mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin. (1.1-rasm):



1.1-rasm. Bolada ijodiy rivojlanishining mexanizmi

Pape-mashe texnologiyalari mashg'ulotlari jarayonida bilim, malaka va ko'nikmalar tarbiyachi tajribasi orqali tarbiyalanuvchining ko'nikmalari rivojlantiriladi. Agar bolada qobilyat bo'lsa, u osonlik bilan mazkur tajribani o'zlashtirib oladi. Bunda pape-mashe texnologiyalari turlarini yaratish metodikasi tayyor holda bolaga taqdim etiladi. Bu jarayonning ahamiyati katta bo'lib, hozirgi kunda bola o'zi ham ushbu metodikalarning mavjudligi haqida mustaqil ravishda xulosa chiqara olish imkoniyatiga ega. Biroq,

tarbiyachining maqsadli ravishda taqdim etgan tayyor metodikalari bolaning ijodiy qobiliyatlarini keskin ravishda oshirib, ularni rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday ekan, ijodiy rivojlanish – **bu yangi moddiy va moddiy bo'lmagan qadriyatlarni yaratishga qaratilgan faoliyatdir.** Ijodiy rivojlanish – bu insonning psixologik va yangilik yaratishga qaratilgan eng yuqori darajadagi faoliyatidir. Maktabgacha ta'lim tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchining ijodkorligi, atrof-muhitni anglashda bola tomonidan o'rganish uchun qo'llanilgan maqsadli erkin faoliyatning samaradorligini aks ettiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining pape-mashe texnologiyasiga nisbatan ijodiyligi esa – buyumlar yasash va pape-mashe texnologiyalari asosida yaratilgan asarlarini tafakkur qilish jarayonida bolaning o'z qobiliyatini namoyon etishga undovchi faoliyatlar majmuidan tashkil topgan xatti-harakatlaridir.

XX asrga qadar psixologiyada ijodiy rivojlanishni asosan aqliy faoliyat va aqliy salohiyat bilan birgalikda bog'langan. Biroq, ko'plab tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, ijodiylik bilan aql va intellekt tushunchalari o'rtasida katta farq, o'ziga xoslik mavjud. Ular bir xil narsa emas, balki ikki turli holatdir. Inson oliy bilimga ega bo'lishi mumkin, lekin u yangi g'oya, kashfiyot yoki tajriba yaratishga qodir bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, inson aqliy jihatdan boshqalarga o'xshashi, lekin boshqalarda o'z iste'dodi nuqtayi nazaridan dunyoda yagona, betakror va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lish bilan ajralib turishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, aql va intellekt mahsulot yaratish uchun zarur bo'lgan elementlar bo'lishi xisoblanadi, biroq bu yangi mahsulot yaratishga yetarli bo'lmaydi. Iste'dod aqlni rivojlantiradi, lekin aqlning o'zi yangi mahsulotni yaratishda cheklov bo'ladi. Yangi g'oya, yangi qarash, yaratuvchanlik kabi hislatlarga ega bo'lishi orqali bola ijodiy rivojlangan bo'lishi kerak, bu esa layoqatlarning to'liq ochilishi va namoyon bo'lishini ta'minlaydi, natijada yangilik yaratiladi. Pape-mashe texnologiyalari yordamida bolada ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va motivatsiya yaratish bo'yicha mavjud konsepsiyalar ma'lum darajada o'zgarish va yangilanishga muhtoj. Ushbu konsepsiyalarda

ba'zi tamoyillarni kuchaytirish va zamonaviy bolalar psixologiyasi, shart-sharoitlari, bolalarning axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, bilim olishdagi ehtiyojlari va keskin rivojlanayotgan uquvlari kabi omillarga mos ravishda o'zgarishlar kiritish talab etiladi. Pape-mashe texnologiyalari asosida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish quyidagi elementlarni taqozo etadi:

- Pape-mashe texnologiyalari asarlari milliy va umumbashariy miqyosda o'tmish va zamonaviy davrni o'zaro bog'lovchi gumanitar paradigma sifatida, tarbiyalanuvchining etik, estetik, garmoniya va go'zallik haqidagi his-tuyg'ulari hamda ma'naviy qadriyatlar tizimini rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida faol foydalanish usullari, vositalari va yo'llarini ishlab chiqish zarur;

- san'at markazida pape mashe texnologiyalaridan foydalangan holatda tarbiyalanuvchida, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni ta'minlash;

- binobarin, mazkur pedagogik jarayon beshta faollik markazining integratsiyasiga asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, modellar va uslublarni talab etishini, shuningdek, ularga oid yangi pedagogik innovatsiyalarni yaratish zarurligini mamlakat miqyosida ta'minlash maqsadga muvofiqdir;

- pape-mashe texnologiyalari orqali yaratilgan asarlarni bilish, ularni tanish va tarixiy jihatdan tahlil qilish, aslida inson tafakkuri, madaniyati, etik va estetik qadriyatlari, tolerantligi va bag'rikengligini shakllantirishda muhim omil ekanligini tan olish zarur. Shu orqali, ushbu asarlarning majmui shaxs madaniyati va dunyoqarashini, shuningdek, uning ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim bo'g'in ekanligini unutmaslik kerak;

- pape mashe texnologiyalari asosida bolada ijodiy rivojlanishini shakllantirishda markazlararo aloqadorlik (integratsiya)ning zarurligi.

Bugungi kunda bizning milliy ta'lim tizimimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bu – dunyo ta'lim tizimiga integratsiya bo'lishdir. Maktabgacha ta'limining barcha bosqichlaridan dunyo tajribasini amaliy va kundalik faoliyatga implementatsiya qilish vazifasi qo'yilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy ta'lim tizimimizda pape mashe texnologiyalari mashg'ulotlariga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, san'at markazlari

orqali bola idroki va tafakkurini, uning ijodiylikini o'zgarishning muhim elementi sifatida qabul qilish, pape mashe mashg'ulotlarining mavqeini o'zgarish, mazkur mashg'ulotning muhimligini ota-onalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot qilish muhimdir. Shu bilan birga pape mashe texnologiyalari mashg'ulotlarini o'zgarishdagi amaliy holat bilan bugungi kunda innovatsion ta'lim nuqtayi nazaridan bo'lishi kerak bo'lgan holat o'rtasida ma'lum tafovutlar mavjud.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar jarayoni tasdiqlangan takomillashtirilgan ilk qadam dasturi asosida tashkil qilinadi. Biroq ko'pchilik ta'lim tashkilotlarida pape mashe texnologiyalari mashg'ulotlariga ikkinchi darajali mashg'ulot sifatida qarash mavjud. Bu esa pape mashe texnologiyalari mashg'ulotining shaxsda amalga oshirishi zarur bo'lgan ijodiy rivojlanishini sifati va uning shaxsning kelgusi hayotiga ta'sir kuchini susaytiradi yoki yo'qqa chiqaradi. Mashg'ulotlar muntazam va samarali tarzda tashkil qilinmaydi. Ko'pchilik tarbiyachilarning pape mashe texnologiyalari mashg'ulotlarini o'tish bo'yicha shaxsiy kompetensiyalari talabga javob bermaydi.

Pape mashe texnologiyalari bo'yicha ta'lim mazmuni murakkab va serqirra mazmun hamda pedagogik vazifalarga ega bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayonidir. U ma'lum bilimlarni shakllantirishdangina iborat emas, balki tayyorlov guruh tarbiyalanuvchisining qo'l malakalarini shakllantirishga, bola ongi va tafakkuri masalalariga ham maxsus yo'naltirilmog'i darkor. Tarbiyalanuvchi ongi bu davrda juda tez va juda katta mehnat qiladi. Ong va tafakkur rivoji esa barmoqlarning keng yo'naltirilgan harakatlarini, amallarini, mayda-mayda narsalarni ushlashi jarayoni bilan aloqador. Qanchalik bolaning barmoqlari harakatda bo'lsa, shunchalik bola intellekti, ong va tafakkur rivoji uchun sharoit yaratilgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. T.: O'zbekiston, 2021. 112-b.

- 2).Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna “Bolalar ijodiy rivojlanishida pape mashe-
texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etishni takomillashtirish(MTT tayyorlov guruh
tarbiyalanuvchilari misolida)”.
- 3).Выготский Л.С. Психология искусства (idem, pdf)/ Общ. ред. В.В.Иванова,
коммент. Л.С.Выготского и В.В.Иванова, вступит. ст. А.Н.Леонтьева. 3-е изд. – М.:
Искусство, 1986. – 573 с.
- 4). Gulsunoy Jamolova, Angren Shahar 34-Idum Ma'naviy-Ma'rifiy Ishlar Bo'yicha
Direktor O'rinbosari. Yangi O'zbekiston Yangicha Dunyoqarash
- 5). Svetlana Raschupkina подделки из папе-маше
- 6). Zunnunov, M. Xayrullayev, B. To‘xliyev, Sh. Qurbonov, X. Masudov, M. Qurbonov
PEDAGOGIKA TARIXI 2004 yil
- 7). История создания техники Папье-Маше
- 8).*(368)Me`morchilik 1-qism.pdf 125-bet
- 9). <https://begemot.ai/projects/1609950-istoriia-texniki-pape-mase>
- 10). N.R.Ashurov, G.Davronbekova. Buyuk allomalarning bolalarning ijodiy qobiliyatlari
haqidagi qarashlari. Science, education, innovation: modern tasks and prospects Hayka,
образование, инновации: современные задачи и перспективы Toshkent iqtisodiyot va
pedagogika instituti Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va
istiqbollari. 2024. 172-bet.
- 11). <https://ru.wikipedia>.
- 12). [https://skillbox.ru/media/education/zhanzhak-russo-filosofiya-obrazovaniya-
velikogo-myslitelya-epokhi-prosveshcheniya/](https://skillbox.ru/media/education/zhanzhak-russo-filosofiya-obrazovaniya-velikogo-myslitelya-epokhi-prosveshcheniya/)
- 13). <https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/103003/18.Mavzu.Qobiliyat.htm>